

**KONFERENSIYALAR.COM**

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XVII RESPUBLIKA ILMIY-  
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-  
FANI: INSON UCHUN  
INNOVATSION G'OYA  
VA YECHIMLAR**

**SENTYABR, 2026**

**ISSN 3093-8791**

**ELEKTRON NASHR:**

<https://konferensiyalar.com>



**Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.**  
XVII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.  
2-jild, 17-son (14-sentyabr, 2026-yil).– 132 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda  
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.com>

**ISSN:** 3093-8791 (onlayn)

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2026-yil, 11-sentyabr

**Mas'ul muharrir:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**Annotatsiya**

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XVII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

**Barcha huquqlar himoyalangan.**

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

## TARIX FANLARI

### X-XV ASRLARDA XORAZM SAVDO SHAHARLARI VA KARVON YO'LLARI TARIXINING ARXEOLGIK TADQIQOTLARI: TARIXSHUNOSLIK TAHLILI

**Jumaniyozov Doniyor Xudoyorovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Mazkur tezisda X-XV asrlarda Xorazm hududidagi shaharlarning savdo-iqtisodiy hayoti, savdo markazlari va ularni o'zaro hamda tashqi hududlar bilan bog'lagan karvon yo'llarining tarixiy ahamiyati arxeologik tadqiqotlar asosida tahlil qilinadi. Xususan, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Qoraqalpog'istonda olib borilgan arxeologik izlanishlarning Xorazmning o'rta asr savdo shaharlari tarixini o'rganishdagi o'rni yoritiladi. Mizdahqonqal'a, Janpiqqal'a, Katqal'a, Abu Muslimqal'a va boshqa yodgorliklarda amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida aniqlangan moddiy manbalar asosida Xorazm shaharlarining savdo-iqtisodiy faoliyati, tashqi savdo aloqalarining yo'nalishlari hamda vohaga olib kirilgan va undan chiqarilgan mahsulotlar tarkibi haqida xulosalar beriladi. Shuningdek, Ustyurt platosidagi karvonsaroylar va karvon yo'llarining Xorazmni Volgabo'yi, Uraloldi hududlari hamda boshqa mintaqalar bilan bog'lashdagi vazifasi ochib beriladi. Arxeologik topilmalar Xorazmning mo'g'ullar istilosidan keyingi davrda ham savdo-iqtisodiy hayotini qayta tiklaganini va Yevroosiyo savdo tizimida muhim mavqeni saqlab qolganini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Xorazm, savdo shaharlari, savdo-iqtisodiy aloqalar, arxeologik tadqiqotlar, Mizdahqonqal'a, Janpiqqal'a, Ustyurt, karvon yo'llari, karvonsaroy, Buyuk Ipak yo'li, Oltin O'rda, Yevroosiyo savdosi.

### ARCHAEOLOGICAL RESEARCH ON THE HISTORY OF KHOREZM'S TRADING CITIES AND CARAVAN ROUTES (10TH-15TH CENTURIES): A HISTORIOGRAPHICAL ANALYSIS

**Jumaniyozov Doniyor Khudoyorovich**

Independent Researcher,

Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni

**Annotation.** This thesis examines the trade and economic life of the cities of Khorezm during the 10th-15th centuries, with particular attention to major commercial centres and caravan routes that connected the oasis with neighbouring and distant regions. Special emphasis is placed on archaeological research conducted in Karakalpakstan from the second half of the 20th century and its contribution to the study of medieval Khorezmian cities and trade relations. Archaeological evidence obtained from excavations at Mizdahkanqala, Janpikkala, Katkala, Abu Muslimkala and other sites makes it possible to clarify the economic activities of urban centres, the main directions of external trade, and the types of goods imported into and exported from Khorezm. The study also highlights the role of caravan routes and caravanserais on the Ustyurt Plateau in maintaining Khorezm's commercial links with the Volga region, the Pre-Ural territories and other parts of Eurasia. Archaeological findings demonstrate that Khorezm restored its trade and economic activity relatively soon after the Mongol invasion and continued to occupy an important position within the Eurasian system of trade.

**Keywords:** Khorezm, trading cities, trade and economic relations, archaeological research, Mizdahkanqala, Janpikkala, Katkala, Ustyurt, caravan routes, caravanserais, Silk Road, Golden Horde, Eurasian trade.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i17/n05>

X-XV asrlarda Xorazm hududidagi shaharlarning savdo-iqtisodiy hayotini tadqiq etish tarixida yangi bosqich 1958-yildan boshlandi. Aynan shu yili O'zbekiston Fanlar akademiyasining Qoraqalpog'iston filialida "Arxeologiya" bo'limining tashkil etilishi voha

shaharlarini tizimli o'rganish uchun muhim ilmiy zamin yaratdi. Nukusda faoliyat yuritgan mazkur bo'lim tadqiqotchilari Moskva ilmiy markazlaridan mavsumiy ravishda kelib ishlagan Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi vakillaridan nisbatan mustaqil ravishda izlanish olib borib, Xorazmning qadimgi va o'rta asr shaharlarida keng ko'lamli arxeologik tadqiqotlarni yo'lga qo'ydilar.

Ushbu tadqiqotchilarning asosiy qismi O'zbekiston Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Tarix, arxeologiya va etnografiya institutining Arxeologiya bo'limida ilmiy faoliyat olib bordi. Mazkur davrda amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarning salmoqli qismi Janubiy Orolbo'yi hududining arxeologik yodgorliklari, tarixiy-madaniy jarayonlari va ularni tadqiq etish bilan bog'liq masalalarni o'rganishga qaratildi. Shu asosda himoya qilingan ko'plab dissertatsiyalarda ham Janubiy Orolbo'yi arxeologiyasining dolzarb muammolari asosiy tadqiqot obyekti sifatida belgilandi [1; 2.].

Mazkur ilmiy izlanishlarning kengayishi X-XV asrlarda Xorazm hududida faoliyat yuritgan savdo markazlari haqidagi mavjud ma'lumotlarni boyitish, ularning tarixiy o'rnini yanada aniqroq belgilash imkonini berdi. Bu jarayonda Qoraqalpoq arxeologlarining asosiy e'tibori o'rta asrlarda Xorazmning yirik savdo va hunarmandchilik markazlaridan biri hisoblangan Mizdahqonqal'a yodgorligini kompleks o'rganishga qaratildi. Xususan, 1962, 1964–1965 hamda 1966-yillarda mazkur hududda olib borilgan muntazam arxeologik qazishma va tadqiqot ishlariga O'zbekiston FA Qoraqalpog'iston filiali Tarix, til va adabiyot instituti katta ilmiy xodimi **V.N. Yagodin** rahbarlik qilgan. Tadqiqotlar davomida aniqlangan arxeologik materiallar Mizdahqonqal'aning uzoq vaqt mobaynida Gurganjdan keyingi Xorazmning muhim savdo-iqtisodiy markazlaridan biri sifatida faoliyat yuritganini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qildi [3; 4.].

1963-yil hamda 1968–1971-yillar oralig'ida Qoraqalpog'iston hududida olib borilgan arxeologik izlanishlar doirasida Amudaryoning o'ng sohilida joylashgan bir qator muhim tarixiy yodgorliklar tadqiq etildi. Mazkur ekspeditsiyaga arxeolog **Yu.P. Manilov** rahbarlik qilgan bo'lib, uning ishtirokchilari tomonidan Katqal'a, Abu Muslimqal'a va Janpikqal'a kabi arxeologik majmualarda keng ko'lamli o'rganish ishlari amalga oshirildi. Ushbu tadqiqotlar Janubiy Orolbo'yi hududining o'rta asrlar tarixiy-madaniy jarayonlarini, xususan, Xorazm shaharlari va savdo markazlarining rivojlanish xususiyatlarini aniqlashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etdi [5; 6; 7].

Arxeologik tadqiqotlar davomida to'plangan dalillar Ibn Battutaning Amudaryoning o'ng sohilidagi Xorazm hududidan Buxorogacha Katdan boshqa shahar mavjud emasligi haqidagi qaydlarini qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatdi. Xususan, muntazam qazishmalar natijasida aniqlangan ko'plab moddiy manbalar, jumladan, Oltin O'rda davriga oid tangalar, mazkur hududda shahar hayoti va savdo munosabatlari mo'g'ullar istilosidan keyin uzoq vaqt davomida to'xtab qolmaganini ko'rsatadi. Arxeologik topilmalar tahlili shundan dalolat beradiki, istilodan keyingi nisbatan qisqa davr ichida Xorazmning Amudaryo o'ng sohilidagi savdo markazlari qayta tiklanib, iqtisodiy va savdo faoliyatini yana yo'lga qo'ygan.

1973, 1978–1981, 1981–1983 va 1985–1987-yillarda Janpiqqal'a, 1973–1974-yillarda Vayangan (Ardaxushmisan), shuningdek, 1980, 1985 hamda 1986–1987-yillarda Mizdahqon hududlarida amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar Xorazmning o'rta asr savdo shaharlari tarixini yanada chuqurroq yoritishga xizmat qildi. Ushbu izlanishlar natijasida shaharlarning topografik tuzilishi va xo'jalik faoliyatiga oid ma'lumotlar boyitilib, Xorazmning turli hududlar

bilan olib borgan savdo munosabatlarining asosiy yo'nalishlarini aniqlash uchun yangi dalillar qo'lga kiritildi. Shuningdek, arxeologik materiallar orqali vohaga Eron, Afg'oniston, Volgabo'yi kabi mintaqalardan olib kelingan mahsulotlar hamda Xorazmdan tashqi bozorlarga chiqarilgan tovarlar tarkibi haqida muayyan tasavvur hosil qilish imkoniyati paydo bo'ldi.

Xorazm savdo markazlarining shakllanishi va rivojlanishi, ularning xo'jalik faoliyati, ijtimoiy-siyosiy hayoti hamda shahar aholisining moddiy turmushini tadqiq etish vohaning tashqi hududlar bilan iqtisodiy aloqalarini ta'minlagan karvon yo'llari va savdo marshrutlarini ham alohida o'rganishni talab etadi. Shu bois Xorazmning xalqaro savdo tizimidagi o'rnini aniqlashda nafaqat shaharlarning o'zini, balki ularni tashqi bozorlar bilan bog'lagan transport va karvon yo'llarining yo'nalishlarini kompleks tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ustyurt hududidan o'tgan qadimgi karvon yo'llarini ilmiy jihatdan o'rganishga qaratilgan tizimli arxeologik izlanishlar 1946-yilda Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi tomonidan yo'lga qo'yildi. Tadqiqotlar davomida Ustyurtda saqlanib qolgan qadimgi karvonsaroilar xarobalari va ular bo'ylab joylashgan inshootlar majmuasi o'rganilib, mazkur hudud Xorazmni Volgabo'yi, Uraloldi o'lkalari hamda Yevropa hududlari bilan bog'lagan muhim tranzit yo'nalishlardan biri bo'lganligi aniqlandi. Arxeologik topilmalar bu yo'llar orqali amalga oshirilgan karvon savdosi uzoq hududlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishida muhim o'rin tutganini ko'rsatadi.

Professor **S.P. Tolstov** tomonidan Ustyurt hududidagi Buloq, Qusbuloq, Belovli, Churuk va Uchquduq karvonsaroilari xarobalarining o'rganilishi mazkur yo'nalishning tarixiy ahamiyatini yanada aniqlashtirdi. Tadqiqotchining xulosalariga ko'ra, ushbu karvonsaroilar X-XI asrlarda faoliyat ko'rsatgan bo'lib, nafaqat karvonlarning to'xtash va dam olish maskani, balki savdo-iqtisodiy munosabatlarni ta'minlovchi muhim punktlar vazifasini ham bajargan [8; 9].

1950-yilda Ustyurt hududida davom ettirilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida mazkur karvonsaroilarning tarixiy vazifasi yanada oydinlashdi. Topilgan moddiy dalillar ularning nafaqat mahalliy savdo aloqalarida, balki Xorazm va Oltin O'rda o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarda ham muhim bo'g'in sifatida faoliyat yuritganini ko'rsatdi. Keyingi tadqiqotlar esa ushbu savdo infratuzilmasining shakllanishi va uzoq vaqt davomida saqlanib qolganini tasdiqladi. Xususan, 1964-yilda Ustyurt hududidagi paleolit davri yodgorliklarini o'rgangan qoraqalpoq arxeologi **Ye. Bijanov** karvonsaroilarning dastlab Xorazmshohlar davrida bunyod etilganini hamda ulardan XIII-XIV asrlarda ham keng foydalanilganini aniqladi. Mazkur xulosalar Ustyurt karvon yo'llarining Xorazmning uzoq hududlar bilan olib borgan savdo-iqtisodiy aloqalaridagi uzluksiz ahamiyatini ko'rsatadi [10; 11; 12].

Xorazmning Yevroosiyo miqyosidagi savdo aloqalari hamda Oltin O'rda davlatining iqtisodiy va madaniy taraqqiyotidagi mavqeini tadqiq etishda qoraqalpoq arxeologi va tarixchisi **M.Sh. Qdirniyozov**ning ilmiy faoliyati alohida ahamiyatga ega. Olim tomonidan olib borilgan arxeologik izlanishlar va ilmiy tahlillar Xorazmning XIII-XIV asrlarda Buyuk Ipak yo'li tarmog'iga faol jalb etilganini, voha hududidan o'tgan savdo yo'llari orqali mintaqalararo iqtisodiy aloqalar rivojlanganini ko'rsatuvchi muhim dalillarni ilmiy muomalaga kiritdi. Uning tadqiqotlari natijalari Xorazmning ushbu davrda Yevroosiyo savdo tizimining muhim bo'g'inlaridan biri bo'lganligini yanada asoslash imkonini berdi.

Ustyurt platosidagi tarixiy-arxeologik yodgorliklarni tizimli ravishda o'rganish XX asrning 70-80-yillarida yanada faollashdi. Jumladan, 1971-1975-yillarda O'zbekiston FA

Qoraqalpog'iston filialining Tarix, arxeologiya va etnografiya instituti Arxeologiya bo'limi mudiri **V.N. Yagodin** rahbarligidagi ekspeditsiya tomonidan Ustyurt hududida keng qamrovli tadqiqotlar olib borildi. Keyinchalik, 1975–1978 hamda 1981-yillarda **Yu.P. Manilov** boshchiligidagi arxeologik guruh Ustyurt orqali o'tgan qadimgi karvon yo'llari va ular bilan bog'liq yodgorliklarni batafsil o'rgandi. Tadqiqotlar natijasida ayrim karvonsaroylarning XIV asr o'rtalarida bunyod etilgani va XV asr oxirigacha faoliyat ko'rsatgani aniqlandi.

Mazkur arxeologik ma'lumotlar Ustyurt orqali o'tgan savdo yo'llarining uzoq vaqt davomida iqtisodiy ahamiyatini saqlab qolganini ko'rsatadi. Ayniqsa, ushbu karvon yo'llari va karvonsaroylarning faoliyat yuritishi Oltin O'rda tarkibidagi Shimoliy Xorazm bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan siyosiy va iqtisodiy manfaatlar mavjud bo'lganini ko'rsatib beradi. Bu jarayonda hukmdorlar hamda savdo doiralari tomonidan mintaqalararo aloqalarni barqaror saqlashga qaratilgan sa'y-harakatlar muhim o'rin tutgan.

#### Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Гудкова А.В, Ягодин В.Н. Археологические исследования в правобережной части дельты Амударьи в 1958-1959 гг. МХЭ, вып. 6, – М, 1963.
2. Ягодин В.Н. Маршрутные археологические исследования в левобережной части Приаральской дельты Амударьи. МХЭ, вып. 7, – М., 1963.
3. Ягодин В.Н. К Изучению топографии и хронологии древнего Миздахкана. В кн. История, археология и этнография Средней Азии. – М, 1968.
4. Ягодин О.Н., Ходжайов Т.К. Некрополь древнего Миздахкана. – Т., «Фан», 1970.
5. Манылов Ю.П. К изучению городища Кят. «Вестник» ККФАН УзССР, 1966, №2.
6. Манылов Ю.П. Ходжайов Т.К. Средневековый мавзолей Джаапк-кглг. «Вестник» ККФАН УзССР, 1972, №2.
7. Манылов Ю.П. Археологические памятники Султануиздага эпохи античности и средневековья. Автореф. дисс канд ист наук. – Т, 1973.
8. Толстов С.П. Хорезмская археолого-этнографическая экспедиция АН СССР в 1946 г. ИАН, Т.IV, 1947, № 2.
9. Толстов С.П. По следам древлохорезмийской цивилизации. – М., Изд. АН СССР, 1948.
10. Бижаков Е. Археологические памятники юго-восточного Устюрта. Автореф. дас. кайд. ист. наук. – Нукус, 1967;
11. Бижанов Е., Лоховиц В. Устюртский караванный путь из Хорезма в Восточную Европу и Поволжье. «Вестник» ККФАН УзССР, 1969, №2.
12. Бижаков Е. Юго-Восточный Устюрт. Некоторые итоги и перспективы археологического изучения. «Вестник» ККФАН УзССР, 1970, №3.

# **YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**

## **XVII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, sentyabr

**Mas'ul muharrir:** *F.T.Isanova*  
**Texnik muharrir:** *N.Bahodirova*  
**Diszayner:** *I.Abdihakimov*

**Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.**

XVII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.

2-jild, 17-son (14-sentyabr, 2026-yil). – 132 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda  
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

**ISSN:** 3093-8791 (onlayn)

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.com>

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2026-yil, 11-sentyabr.

**Barcha huquqlar himoyalangan.**  
© Science problems team, 2026-yil.  
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.